

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 1-son. 3-qism. Noyabr-2025

TRANSPORT TIZIMINING IQTISODIYOTDAGI O'RNI

Jumadullayeva Muyassar Abdrazak qizi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada transport tizimining mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni, uning milliy infratuzilma tarmoqlarini bog'lovchi strategik omil sifatidagi ahamiyati, transportning ishlab chiqarish, savdo, logistika va xizmat ko'rsatish sohalariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida transport tizimini modernizatsiya qilish, ekologik toza va samarali transport vositalarini joriy etish, yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan.

ANNOTATSIYA: В данной статье рассматривается роль транспортной системы в экономическом развитии страны, её значение как стратегического фактора, соединяющего национальные инфраструктурные отрасли, а также влияние транспорта на производство, торговлю, логистику и сферу услуг. Кроме того, анализируется модернизация транспортной системы Республики Узбекистан, внедрение экологически чистых и эффективных транспортных средств и развитие дорожно-транспортной инфраструктуры.

ABSTRACT: This article examines the role of the transport system in the economic development of the country, its importance as a strategic factor connecting national infrastructure sectors, and the impact of transport on production, trade, logistics, and services. It also analyzes the modernization of Uzbekistan's transport system, the introduction of environmentally friendly and efficient vehicles, and the development of road and transport infrastructure.

KALIT SO'ZLAR: transport tizimi, iqtisodiyot, infratuzilma, logistika, modernizatsiya.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: транспортная система, экономика, инфраструктура, логистика, модернизация.

KEYWORDS: transport system, economy, infrastructure, logistics, modernization.

Transport tizimi har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim tayanch hisoblanadi. U ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi, tovar va xizmatlarning ichki hamda tashqi bozorlarga yetkazilishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Transport nafaqat iqtisodiyotning bir sohasi, balki boshqa tarmoqlarni birlashtirib, ularning o'zaro samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan kompleks tizimdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida transport xizmatlarining sifati, tezligi va ishonchliligi mamlakatning raqobatbardoshligini belgilovchi omillardan biridir.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 3-qism. Noyabr-2025

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng transport tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraldi. Chunki iqtisodiy o‘rish va ijtimoiy farovonlik darajasining ortishi ko‘p jihatdan transport infratuzilmasining holatiga bog‘liqdir. Mamlakatimizning geografik joylashuvi — Markaziy Osiyoning yuragida, yirik xalqaro transport yo‘laklari kesishgan hududda joylashgani — transport tizimini strategik ahamiyatga ega tarmoqqa aylantiradi. Shu bois, so‘nggi yillarda temir yo‘l, avtomobil, havo va metropoliten transportini modernizatsiya qilish, yangi logistika markazlarini qurish, xalqaro transport aloqalarini kengaytirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Transport tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni, avvalo, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlash bilan belgilanadi. Xomashyo, material va tayyor mahsulotlarning harakati transport orqali amalga oshadi. Masalan, sanoat korxonalarining faoliyati uchun zarur bo‘lgan xomashyolar temir yo‘l yoki avtomobil transporti yordamida yetkaziladi. Natijada, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, vaqt va resurslar tejraladi. Bundan tashqari, transport savdo aloqalarini rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Samarali transport tizimi mahsulotni tezkor va sifatli yetkazish imkonini yaratadi, bu esa eksport hajmining ortishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida transport infratuzilmasini rivojlantirish davlat tomonidan strategik darajada qo‘llab-quvvatlanmoqda. “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida transport-logistika sohasini modernizatsiya qilish, transport koridorlarini kengaytirish, yo‘l-transport xavfsizligini ta‘minlash, ekologik toza transport vositalarini joriy etish muhim ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Jumladan, “Toshkent—Andijon—O‘sh—Irkeshtom” avtomobil yo‘li, “Angren—Pop” temir yo‘l liniyasi kabi loyihalar mamlakatning ichki va tashqi aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda “raqamli logistika” va “aqlli transport tizimlari” tushunchalari global miqyosda keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston ham bu borada sezilarli natijalarga erishmoqda — transport monitoringi, onlayn bilet tizimlari, elektron to‘lov xizmatlari yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu nafaqat xizmat sifatini oshiradi, balki korrupsiyani kamaytiradi, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Ekologik jihatdan barqaror transport tizimini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Aholi sonining ortishi, avtomobillar sonining ko‘payishi natijasida atmosfera ifloslanish darajasi ham oshmoqda. Shu bois, elektr transport vositalarini keng joriy etish, jamoat transportini modernizatsiya qilish, velosiped yo‘laklari tarmog‘ini kengaytirish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Toshkent shahrida elektrobuslar va metropoliten tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ekologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 3-qism. Noyabr-2025

Transport tizimining rivojlanishi mintaqaviy integratsiyani kuchaytiradi. O‘zbekistonning xalqaro transport koridorlariga chiqish imkoniyatlari Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlaydi. “Trans-Afg‘on” temir yo‘l loyihasi, “Toshkent–Termiz–Mozori Sharif–Kobul–Peshovar” yo‘nalishlari nafaqat mamlakat eksport salohiyatini oshiradi, balki butun mintaqaning iqtisodiy faolligini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, transport tizimi iqtisodiyotning asab tizimi sifatida barcha sohalarni birlashtirib turadi. Uning rivojlanish darajasi mamlakatning sanoat, savdo, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy infratuzilmasining samaradorligini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi transport tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza transport vositalarini qo‘llash orqali iqtisodiyotning barqaror o‘lishini ta‘minlamoqda. Kelgusida ham transport sohasidagi islohotlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. “Transport tizimini rivojlantirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5043-son qarori, 2021-yil 12-aprel.
3. Karimov I.A. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlar yo‘lida”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
4. “O‘zbekiston transport va logistika sohasini rivojlantirish konsepsiyasi 2030”. – Toshkent, 2020.